

YUQORI MALAKALI VA RAQOBATBARDOSH MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASHDA OLIY TA'LIMNING O'RNI

Salimova Sevara Asqar qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17449847>

Annotatsiya. Ushbu maqola "Yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashda oliy ta'limning o'rni" mavzusini o'rganadi. Maqolada oliy ta'lim tizimining zamonaviy iqtisodiyot va jamiyat rivojidadagi ahamiyati, shuningdek, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdagi roli tahlil qilinadi. Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari, ilmiy tadqiqotlar va amaliyot bilan integratsiyasi, shuningdek, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribalar va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi muhokama qilinadi. Natijada, maqola oliy ta'limning sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida zarur bo'lgan strategiyalarni belgilaydi.

Ushbu tadqiqot, oliy ta'lim tizimini takomillashtirish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: pedagog, ta'lim, iqtisodiyot, talaba, mutaxassis, jamiyat, kompetentlik, o'qituvchi, o'quvchi.

Аннотация. В статье рассматривается тема «Роль высшего образования в подготовке высококвалифицированных и конкурентоспособных специалистов». В статье анализируется значение системы высшего образования в развитии современной экономики и общества, а также её роль в подготовке конкурентоспособных специалистов.

Рассматриваются интеграция образовательных программ высших учебных заведений с научными исследованиями и практикой, а также инновационные подходы, направленные на развитие профессиональных навыков студентов. В статье также обсуждается международный опыт подготовки высококвалифицированных кадров и его применение в условиях Узбекистана. В результате в статье определяются стратегии, необходимые для повышения качества высшего образования и подготовки конкурентоспособных специалистов. Данное исследование направлено на содействие социально-экономическому развитию страны посредством совершенствования системы высшего образования.

Ключевые слова: преподаватель, образование, экономика, студент, специалист, общество, компетентность, преподаватель, студент.

Abstract. This article examines the topic "The role of higher education in the training of highly qualified and competitive specialists." The article analyzes the importance of the higher education system in the development of the modern economy and society, as well as its role in training competitive specialists. The integration of educational programs of higher educational institutions with scientific research and practice, as well as innovative approaches aimed at developing students' professional skills, are considered. The article also discusses international experiences in training highly qualified personnel and their application in the conditions of Uzbekistan. As a result, the article identifies the strategies necessary in the process of improving the quality of higher education and training competitive specialists. This study aims to contribute to the socio-economic development of the country by improving the higher education system.

Keywords: teacher, education, economy, student, specialist, society, competence, teacher, student.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va isloh qilish, bugungi kunning talablariga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz aytib o'tganlaridek, jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi. Bu borada bizning yurtimizda ham ta'lim tizimiga, yuqori malakali kadrlar yetishtirishga alohida e'tibor qaratilib, davlat byudjetidan katta miqdorda mablag' ajratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar Strategiyaasi" belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, shahar-u qishloqlarimizda yuzlab ishlab chiqarish korxonalari ochildi. Ko'plab sanoat korxonalari modernizatsiya qilinib, qaytadan jihozlandi, buning natijasida, zamonaviy va sifatli ishlab chiqarish obyektlari yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa, ushbu korxonalarda bugungi kun talablariga javob beradigan, eng so'nggi qurilmalar bilan ishlay oladigan malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni talab qiladi. Oliy ma'lumotga ega yuksak malakali kadrlar tayyorlash esa, avvalambor ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati hamda ularning yuksak tajribasiga bog'liqdir.

Yuqorida qayd etib o'tilgan yo'nalishda samarali natijalarga erishishda, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ijobiy rol o'ynaydi deb hisoblayman:

Birinchidan, kadrlarni tayyorlashda ilg'or xorijiy tajribalarni parallel ravishda o'rganib borish va ular orasidan yurtimizning sharoitiga va milliyligimizga mos keluvchi tajribalarni amalga tatbiq etish;

Ikkinchidan, nodavlat OTM sonini ko'paytirib, ushbu tizimda sog'lom raqobatni yuzaga keltirish. Bu orqali yurtimizning ta'lim tizimiga yangicha metodologik yondashuvlarning kirib kelishiga erishib, kadr tayyorlashda bir yoqlamalikka chek qo'yish mumkin;

Uchinchidan, o'zining tajriba va bilimi bilan kadrlar tayyorlashda yuqori natijaga erishayotgan pedagoglarni doimiy rag'batlantirib borish tizimini yo'lga qo'yish lozim;

To'rtinchi va eng asosiysi, OTM da tahsil olayotgan talabalarni, real amaliyot bilan uzviy bog'lash. O'zida xam nazariy zam amaliy eng so'ggi ma'lumotlarni qamrab olgan adabiyotlarni talabalarga yetkazib berish.

Ta'limga e'tibor bu kelajakka e'tibordir. Ushbu sohada real natijaga erishish uchun avvalambor qat'iy tartib bo'lishi lozim deb o'ylayman. Avvaldan yurtimizda shakllangan ustoz shogird an'anasi ham yuksak o'zaro hurmat va tartib orqali shakllanganligini unutmasligimiz lozim. Bu esa, o'zining ijobiy natijalarini berib kelgan.

REFERENCES

1. Миронова, Н. В. Дифференцированный подход к маркетингу услуг [Электронный ресурс] / СтратаСтат. - Режим доступа: http://www.stratastat.ru/article_05. - Загл. с экрана.
2. Панкрухин, А. П. Маркетинг образовательных услуг: методология, теория и практика [Электронный ресурс] // www.marketing.spb.ru/libspecial/branch/mou/index.htm.
3. Песоцкая, Е. В. Маркетинг услуг [Текст]. / Е. В. Песоцкая - СПб.: Питер, 2000. -С. 26
4. Abduraxmonova N.N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati // Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 8 UIF-2022: 8.2\ISSN:2181-3337.2114-2121 betlar.
5. <http://scientists.uz/view.php?id=3348><http://scientists.uz/uploads/202208/B-432.pdf>
6. Abdurakhmanova N.N. Structural and substantive features of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // The field of scientific research International scientific-online conference Part 4 November 30th Colletions of scientific works Warsaw 2022. / 115-121 betlar. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/646/607/595>